



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUDYALAR OLIY KENGASHINING Q A R O R I

2024 yil 15 may

№ 1902

Ayrim sudyalarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi "Sudlar to'g'risida"gi Qonunning 79-moddasi va "O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi to'g'risida"gi Qonunning 7, 17-moddalariga muvofiq

Buranova Soxiba Ibragimovna – odil sudlovni amalga oshirish chog'ida qonuniylilikni buzganligi va Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun Toshkent viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Zangiota tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin;

Murodov Kamoliddin Ravshanovich – Sudyalar odobi kodeksi talablarini buzganligi uchun Surxondaryo viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Denov tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin;

Abduvaxabova Maxmuda Asatullayevna – yozma arizasiga binoan Toshkent viloyat sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin;

Musayeva Nigora Rajabovna – yozma arizasiga binoan Toshkent viloyat sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin;

Olimova Abida Muminovna – yozma arizasiga binoan Toshkent viloyat sudining fuqarolik ishlari bo'yicha sudyasi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin;

Sodiqov Shuxratjon Abdumuminovich – sudyalik qasamyodini buzganligi uchun Namangan viloyati jinoyat ishlari bo'yicha Mingbuloq tuman sudining raisi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin;

Berdiyev Alisher Javliyevich – sudyalik qasamyodini buzganligi uchun Qashqadaryo viloyati fuqarolik ishlari bo'yicha Chiroqchi tumanlararo sudining sudyasi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin;

Shamaxmudov Abbosxon Abzalovich – sudyalik qasamyodini buzganligi uchun Toshkent shahri jinoyat ishlari bo'yicha Sirg'ali tuman sudining sudyasi lavozimidan ozod etilib, sudyalik vakolatlari muddatidan ilgari tugatilsin.

Ushbu qaror qabul qilingan kundan e'tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



X.Yodgorov